

Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'рни

Bibirajab Yo'ldasheva¹, Sharipova Parizod²

Annotatsiya: Maqolada buyuk bobokalonimiz Amir Temur hayoti, davlat siyosati hamda jahon tarixida tutgan o'рни, qisqacha qilib aytganda Amir Temur davri tarixiy geografyasi haqida so'z boradi. Amir Temur kabi tarix g'ildiragini o'zgartirgan hukmdorlar juda kamdir. O'zbek davlatchiligining tom ma'nodagi buyuk asoschisi Amir Temur g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi, uni huquqiy poydevor hamda aql - zakovat bilan boshqardi.

Shuningdek, maqolada buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat'iy islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo'lgan Amir Temur davlatni qonunlar va urf-odatlariga asoslanib boshqarganligi hamda uning jang maydonlarida ko'rsatgan jasoratlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Amir Temur, Kichik Osiyo, Yevropa, Kesh, Xo'ja Ilg'or, Maymurg', Mozandaron, Samarqand, Konstantinopol, Xorazm, Shahrisabz, Jizzax, Rossiya, Sohibqiron, davlat, qonun, siyosat, jang.

KIRISH

Bugungi zamon voqealari o'tmishdagi bobokalonlarimizning tarixini o'rganmay turib, kelajak qurib bo'lmasligini ko'rsatib turibdi. Tarixdagi eng buyuk adolat va qudrat timsoli bo'lmish Amir Temur bobomiz tarixini qanchalar ko'p o'rgansak shunchalar kamdir. Bobomiz qoldirgan meros ya'ni uning o'g'itlari hozirgi globallashuv davrida ham o'z ahamiyatini yuqotmagan bundan keyin ham yo'qotmaydi. Yana qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etishdekdir.

Sohibqiron Amir Temur – o'zligimizni anglash milliy an'ana va qadriyatlarimizni tiklash borasidagi ulug'vor ishlarda xalqimizga ma'naviy kuch bag'ishlab kelayotgan ulug' siymolardan biridir. Amir Temurning "Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir" degan shiori Temuriylar saltanatining barcha hududlarida axloqiy-ma'naviy mezonga aylangan.

METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda Amir Temur hayoti va yurishlari, qisqa qilib aytganda, Amir Temur tarixi manbalar asosida o'rganilib tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI

Bobokalonimiz Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan, uzoqni ko'ruvchi buyuk davlat arbobi edi. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshida Movarounahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan mustaqil davlatga asos soldi, o'rta asr uyg'onish davri madaniyati, ilm-fani, san'ati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan, uning benazir homiysi bo'lib tanilgan bu ulug' zot nomi asrlar osha avlodlarning faxri va iftixori bo'lib kelmoqda. Amir Temur o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir.

¹ t.f.f.d (PhD), Buxoro davlat universiteti

² Buxoro davlat universiteti talabasi



Amir Temur Kesh shahri yaqinidagi Xo`ja Ilg`or qishlog`ida tug`ilgan. Kesh Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan bo`lib, VII asrda barpo etilgan [1]. Xitoy solnomalarida keltirilishicha, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo bo`ylarida Samarqand, Maymurg`, Kesh, Naxshab, Ishtixon, Kushon, Buxoro, Amul va Andxon singari to`qqizta mustaqil hokimlik bo`lgan [1]. O`sha manbalarda Maymurg` va Andxoy, Kesh, Kushon, Buxoro va boshqa hokimliklar, ayniqsa, kuchli harbiy salohiyatga ega bo`lganliklari qayd etiladi [1].

XIV asrdan boshlab Kesh Shahrisabz deb ataladi. Xo`jailg`or qishlog`i hozir ham mavjud bo`lib, Shahrisabzdan o`n uch chaqirim junubi-g`arbda, hozirgi Yakkabog` tumani hududida joylashgan [1]. Amir Temurning onasi Takina xotun buxorolik [2]. Otasi amir Tarag`ay esa barlos urug`ining oqsoqollaridan hamda Chig`atoy ulusining e`tiborli beklaridan hisoblangan. Tarag`aybek 1360 - yilda vafot etgan [2]. Amir Temir tabiatan og`ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo`lgan. Shu tufayli o`spirinlik chog`laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do`stlarini jalb qila olgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo`shinida lashkarboshchilik darajasiga ko`tarilgan. Amir Temur o`zining ilk harbiy faoliyatini qo`l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Dong`i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aql-u zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan Xizr Yasovuriy va Movarounnahrning amiri Qazag`on bilan yaqinlashtirdi [2].

Maqolada Amir Temurning harbiy yurishlaridan oldin uning davlat siyosati borasidagi qarashlari yoritilgan. Hozirgi kunga qadar ijtimoiy fanlarda andozaga aylanib ulgurgan bir ibora mavjud. Dunyoda birinchi marta Konstitutsiya g`arb olamida paydo bo`lgan degan tushuncha jahon xalqlari ongi va shuuridan mustahkam o`rin olgan. Biz esa tarixiy adolat va haqiqatni tiklash uchun, albatta, rad qilib bo`lmas dalillar, ilmiy-tarixiy manbaalar asosida “Nur g`arbdan emas, sharqdan taraladi” g`oyasiga tayanish zarurdir. Bu nurni esa buyuk zot Amir Temur boshlab bergan [3].

Amir Temurning odilona siyosati va qonunlarning barcha sohalarida adolatli amalga oshirilishi shunday hayrotomuz natijalar berdiki, mog`ullar bir yuz ellik yil davomida vayronaga aylantirilgan Turon yurti sohibqiron hukmronligi zamoniga kelib, qisqa vaqt oralig`ida jahonning barcha sohalarida eng qudratli, iqtisodiy barq urgan, madaniy hayoti yuksalgan, bunyodkorligi bemisl rivojlangan mamlakatga aylandi, agar insonlar erkinligi har tomonlama muhofaza qilinmaganida ijtimoiy guruh va tabaqalar davlat tomonidan rag`batlantirilmaganida edi bunday yuksak taraqqiyotga erishib bo`lmasdi. O`rta asrlar davridayoq Amir Temur hozirgi davr iborasi bilan aytganda erkin fuqarolik jamiyatiga asos soldi[3]. Amir Temur o`z vatanini mo`tabar va aziz makon deb bilardi. Shu boisdan umri davomida o`zi uchun kichik hujra ham qurmagan[4].

Amir Temur o`z davri va zamonasiga ko`ra markazlashgan yirik davlatga asos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga beqiyos xizmat qildi. Amir Temur o`z saltanatida shunday bir tinchlik barqarorlik va osoyishtalikni qaror toptirdiki qonunlarni kundalik hayotda sinash maqsadida bir bola boshiga bir tog`ora tilla qo`yib mamlakatni mag`rib-u mashrug`i qadar aylantirib chiqilganida ham bir miri kamaymasdan qaytib kelishi mehnatsiz kun ko`ruvchilarga, tovlamachilarga Amir Temur chiqargan qonunlar mutlaq to`siq qo`ya olgan edi [3]. Poraxo`rlik, ishsizlik mamlakatda butunlay barham topdi. Viloyat tuman hokimlariga shunday ko`rsatmalar berildiki hech bir inson ishsiz qolmasin [3]. Agar gado kasal bo`lsa, uni davolab o`z kunini ko`radigan biror mehnat turi bilan ta`minlansin, dehqonning ulovi bo`lmasa, ulov, omoch, urug`lik va boshqa zarur yordamlar berilsin, savdo qilmoqchi bo`lganlarga ichki bozorga loyiq tijorat ishini yuritmoqchi bo`lsa shunga loyiq, agar savdogar tashqi bozorga layoqatli bo`lsa o`sha savdogarga mablag` bilan zarur darajada yordam bersinlar, xalq har tomonlama davlat g`amxo`rligini sezgach Amir Temur hokimiyatining xalqparvarligini qalban his qilib, uning atrofida mustahkam qoyadek jipslashdilar [3]. Yov kelsa dengiz to`lqinidek chayqalib uni daf qildilar. Mamlakat bozorida dehqon-u hunarmandlar kechqurun ketishi oldidan don to`ldirilgan qopi ustiga bog`ichi, dastro`moli yoki belbog`i tashlab ertasiga kelib savdo-sotig`ini bemalol davom qildirarki, mahsulotning bir misqoli kamaymaganligining guvohi bo`lardilar. Bir tomondan e`tiqod mustahkamligi-yu halollik oqibati bo`lsa, ikkinchi tarafdan esa qonun ustuvorligining natijasi edi.



Amir Temur buni shunday ifodalagan edi :“Mening saltanatimda kimki mukofotga loyiq ish qilsa mukofotsiz qolmaydi, jazoga loyiq ish qilsa jozosis qolmaydi” [3].

Amir Temur bosqinchi to`dalarning Yevropa ichkarisiga qilayotgan harakatiga chek qo`yganini boshqa tajovuzkorlik yurishlarini uzoq muddatga to`xtatib qo`yganini hozir inkor qilib bo`lmaydi. Ma`rifatli Movarounnahr ruhi temuriylar davrida fan va san`atining gullab yashnagani Yevropada uyg`onish jarayoniga hayotbaxsh ta`sir etganini umumjahon taraqqiyotiga ko`maklashganini anglab faxrlanamiz[4]. Siyosatda maslahat mulohazakorlik, o`ylab ish qilish qurol kuchidan ko`ra o`n baravar foydaliroqdir - degan dono so`zlar Amir Temurga mansubdir[3]. Bu so`zlar hozirgi, kunda nizoli masalalarni siyosiy muloqot ogohlantiruvchi diplomatiya yo`li bilan hal qilishni bildiradi. Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixida birinchi marta yagona jug`rofiy – siyosiy makonda ekanliklarni his etdi. Bu faqat ulkan afzallikdagina emas, savdogarlar, xalqlar hech qanday to`sqinliksiz harakat qiladigan yangi yo`llarning ochilishida ham namoyon bo`ldi[4]. O`zaro ishonch, hamkorlik, umumiy murosaga kelish mumkinligiga aminlik, o`sha murakkab va jo`shqin davr quvonchlari va azoblarida vujudga kelgan asosiy qadriyatlaridir [3]. Davlatni yolg`onchilardan o`g`ri va salohlardan saqlab hech qachon va hech qayerda birovning haqiga ko`z olaytirmadi, qayerdan bir g`isht olgan bo`lsa o`rniga o`ntasini qo`ydirdi, qayerda bir daraxt kestirgan bo`lsa o`rniga o`nta nihol o`tqazdi, urushni hech keragi yo`q degan inson ham Amir Temurdir [5]. U nafaqat o`z yurtini balki ulkan hududni buyuk saltanatga aylantirdi, qanchadan-qancha mamlakat va karvon yo`llarining xavsizligini ta`minladi. Amir Temurning adolati shundaki u har ishni o`z qarichi bilan emas balki qonunlar asosida, xususan, Qur`oni Karimga asoslanib insoniylik nuqtai nazaridan kelib hal etdi va birinchi navbatda norasida go`daklarni avaylab, olim va adiblarni hunarmandlarni himoyasiga oldi [4]. Hukmdor sifatida shunday ahd qildiki, uning saltanatida fil pashshaga tavoze qilar ya`ni qaysi shahar, qishloqda birovning moli yo`qolsa og`ri paydo bo`lsa o`sha yerdagi oqsoqol jazoga tortilar edi, zero mahalla rahnamosi o`g`ri bilan til biriktirmasa yoki o`z vazifasiga sidqidildan yondashsa, o`g`rilik sodir bo`lmaydi. Binobarin o`sha paytda Samarqanddan yo`lga chiqqan yoki aksincha u tomondan yo`lga chiqqan karvonga undagi yuklarga biron-bir kimsa ziyon yetkazishga jur`at qilolmagan [5]. Albatta, bunga erishguncha Amir Temur ko`p ter to`kib ko`p mehnat qilgani uchun xalq uni yaxshi ko`rar va qadrlar edi.

Chig`atoy ulusi davrida Movarounnahrda o`zaro nizolar va tarqoqlikni tugatish maqsadida Amir Temur kurash boshlaydi. 1365-yilda Movarounnahr hukmdori deb tayinlangan Ilyosxo`ja qo`shinlari bilan Temur va Husayn ittifoqchi qo`shinlari o`rtasida Chirchiq daryosi bo`ylarida bo`lib o`tgan jangda Ilyosxo`ja qo`shinlarining qo`li baland keladi va u Xo`jand, Jizzax shaharlarini egallab, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandda bu paytda sarbadorlar harakati maydonga chiqib, mo`g`ullarning qo`shiniga qarshi qaqshatqich zarba beradi. Ilyosxo`ja avval Samarqandni so`ngra butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo`ladi. Bundan xabar topgan Amir Temur va Amir Husayn Samarqandga keladilar. Ammo ko`p vaqt o`tmay Amir Temur va Amir Husayn o`rtasida munosabat keskinlashib, nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, uning qal`a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishdi. 1370 - yil Amir Temur Balxga yurish qilib, Amir Husaynni taslim qiladi [6]. Bu xabar tarqalishi bilan Movarounnahrning katta-yu kichik hukmdorlari Balxga tashrif buyurib g`olibni tabriklashga shoshildilar. 1370-yil 10-aprelda Amir Temur oq kigiz ustidan joy oldi, boshiga toj kiyib xonlik kamarini bog`ladi; urug`larning boshliqlari va marosimga qatnashgan barcha tiz cho`kib, unga olqishlar o`qidi [7]. Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo`lib olgach, o`z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi.

Amir Temur 1370-yilning may oyida Samarqandga qaytib shaharni tiklaydi. Maxsus qo`shin tuzib, davlat chegaralarini kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi yerlarni birlashtirib, o`ziga bo`ysundiradi [6]. Amir Sohibqiron lashkarini tartibga keltirish va qurollantirishni hamda lashkariga hisobsiz mol, ko`plab ot va sovut – anjomlarni tarqatishni buyuradi, so`ng Xorazm tomon yurishga jazm qiladi. Tog` Adog` va Sepoya mavzesidan o`tganlarida, qarshilaridan dushman qorovuli chiqib keldi. Lashkarning bir to`dasi ularga hamla qilib g`alaba qozondi [8]. 1371 yilda Xorazmni egallaydi.



Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik hamda o'zaro nizolarga barham berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufiga birlashtiradi. Keyinroq Shibirg'on viloyati, Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimyatini tan oldilar [6].

O'z qo'shini tarkibiga bosib olingan davlatlardagi harbiy tabaqaga mansub kishilarni ham qo'shib olgan Amir Temur bundan ham ko'proq yerlarni bosib olishni rejalashtiradi [9]. 1383-yili Temur Mozandaronni zabt etib, u yerdan Ozarbayjon, Armaniston, Gurjiston (Gruziya)ga yurish qiladi va bosib olgan yerlarini Arzrum, Tiflis va Darbandgacha yetkazadi [9]. U Gurjistondan Van, Isfaxon va janubiy Erongacha borib, Fors poytaxti Sheroz shahrini bo'sundirdi [9].

Bu davrda mo'g'ullarning yurishlari ham kuchayadi. Amir Temur ularga qarshi yigirma yil davomida (1371-1390) mobaynida Amir Temur Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari ustidan g'alaba qozonadi [6]. Amir Temur tarqoq va uzoq urushlardan xonavayron bo'lgan Movarounnahr va Xuroson yerlarini mo'g'ullar mustamlakasidan ozod etib, yagona, mustaqil va mustahkam davlatga birlashtirdi. Uning markazi etib Samarqand shahri tanlandi [10]. Amir Temur davlati o'z davrida Ovropa va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi [10]. Amir Temur saltanatga faqat bir madaniyatni majburan kiritmasdan, aksincha turli madaniyatlarni qo'shib bugungacha yashab kelayotgan Ovroosiyo g'oyasini ishlab chiqqan hukmdor hamdir.

Amir Temurning shaxsiy jasorati, janglarda ko'rsatgan mardligi do'stlari va dushmanlari orasida ham e'tirofqa sazovor bo'lgan. Kuch – qudrati va matonati kishilarni hamisha lol qoldirgan. Buni esa askarlarida ham ko'rish mumkin. U o'z askarlarini hamisha kurashchan vaziyatda tutarkan jangda tuzoq orqali tez shiddatli hujum uyushtirishni afzal bilgan. Noto'g'ri holat vaziyatda mingta jangchi bilan turgandan ko'ra o'nta jangchi bilan to'g'ri holat vaziyatda turgan ma'qul deydi -u[5]. Amir Temurning harbiy yurishlari chog'ida ko'plab shaharlar unga jangsiz taslim bo'lgan. Bunga ko'pincha tabiiy qonun-qoida chegarasidagi bir hol deb qarashgan [5]. Amir Temur olib borgan yangi yurishlar tabiati tom ma'noda harbiy ahamiyati jihatidan yurish maqsadlariga asosiy fikrni jamlay olish mahoratini ko'rsatadi va bu maqsadlarga erishish urush olib borish mohiyatini belgilaydi.

Amir Temur katta strategik sezgisiga ega bo'lib foydali hamkorlik qilish ahamiyatini yaxshi tushungan. Zabt etgan yurtlarining xilma – xilligini hisobga olganda bu nihoyatda mushkul ish. O'z hayotiy faoliyatining boshlanishida ilg'or harbiy kuchlar ustidan qo'mondonlik qilgan Tug'luqxon bilan o'ta nozik ittifoq tuza oldi [5]. Bu holat Amir Temurga o'zi boshqarib turgan hududlarda hukmronligini mustahkamlashga imkon bergan. Bunday ittifoq tuzish unga boshqa ayrim janglarda ham g'alaba qozonishda qo'l kelgan va imperiyasini himoya qilishda ittifoqdoshlarini doimiy ravishda o'zgartirib turgan [5].

Amir Temur harbiy mahoratini ko'rsatuvchi yana bir jihati o'z oldiga qo'ygan maqsadga jangsiz erishish qobiliyatidir. Amir Temur keng ko'lamlı yurishlarda qo'llagan harbiy texnikani ham juda yaxshi va to'la-to'kis bilgan [5]. Harbiy yurishlarida neft bilan to'ldirilgan mo'gul qozonlaridan ham foydalanganlar. Unda jang paytida eng zarur kerakli joyda bo'la olishdek ajoyib xususiyat mavjud bo'lib bu iqtidor unga dushman tomon uning maqsadini o'qib olishga ulgurmasdan vaqtida oqilona qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish imkoniyatini yaratgan[5]. Yutquziqsiz maqsad Amir Temur dahosining asl muddaosini belgilaydi. U o'yin muddatini cho'zish maqsadida donalari ikki baravar ko'paytirilgan maxsus shaxmat taxtasini o'ylab topgan [5]. Uning birinchi maqsadi urug' hokimligidan ustun bo'lgan qonuniylikni yuzaga keltirish bo'lib, dushman qabilalarni to'liq yo'qotish o'rniga ularning ichiga nominal hokimlikni kuchaytirish yo'li bilan saylov tizimini sindirishga qaror qilgan va shu vaqtning o'zida ularning hokimlik vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan real qobilyatlarini susaytirgan. Qachonki urug' hokimligiga jiddiy qodir biror dushmandan xalos bo'lishni xohlasa boshqa dushmanga ular bilan hisoblashishga imkon tug'dirib bergan Amir Temur uchun biror amalning natijasi uni amalga oshirish jarayonidan muhimroq sanalardi[5].

Amir Temur o'z kamchiliklarini ham tushunar, lekin u boshqalar yo'l qo'ygan xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish bilan xatolarini tuzatib to'ldirib borgan [5]. To'xtamishni paysalga solishi, Boyazidni



manmanligi, fors amirlarining o'zlariga bino qo'yishlari va boshqalardan oqilona foydalangan [5]. Shu bilan birga olib borgan siyosati, harbiy yurishlari to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasa ham ma'lum ma'noda o'zga, tashqi mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazib mo'g'ullarning Xitoyga bo'lgan xavfini bartaraf etgan [5]. Shunday qilib litvaliklar va boshqa kuchlarning Rossiyaga hujumlari ham barham topgan. Konstantinopolning usmonli turklar tomonidan zabt etilishini yarim asr orqaga surgan, biroq turklarni Kichik Osiyodan ta'qib eta borib, Yevropada bir umrga qolishlariga imkon bergan [5].

XULOSA

Insoniyat tarixida barcha jabhada adolatni ustun bilgan hukmdorlar tarixiga qiziqish hamisha katta bo'lgan. Ana shunday zotlardan biri buyuk bunyodkor, ilm-fan homiysi, yuksak vatanparvar o'zi barpo etgan ulug' saltanatni Temur tuzuklaridek odilona qonunlari bilan mustahkamlagan shavkatli hukmdor, yengilmas sarkarda Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temurdir. U hukmronligi davridayoq sharqni chingiziylar, Yevropani Usmoniylar asoratidan asrab qolgan qahramon sifatida o'z yaratilgan kitoblarda e'tirof etiladi.

Amir Temur Movarounnahrda o'rta asr uyg'onish davriga bebaho hissa qo'shgan buyuk shaxslardan biridir. U ko'chmanchilarning qobilyatlarini mo'g'ullarning jasoratini mo'minlarga xos imon-e'tiqodini o'zida mujassamlashtira olgan edi. Amir Temur mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi. Amir Temur davlati qurilishi harbiy san'ati ko'p asrlar davomida sharq-u g'arb davlatlariga o'rnak va andaza bo'ldi. Hamma madaniyatlar ma'lum ma'noda o'ziga xos lekin ularning turli elementlarini vaqt o'tishi bilan bilan o'zgaradigan strategik qadriyatlarga aylantirish mumkin Amir Temur bu nazariy imkoniyatni tushunib yetgan Markaziy Osiyodagi birinchi shaxs edi. Umumiy xulosa shuki, Amir Temur davlatining mafkurasi siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot g'oyalari amaliy ishlarining bir-biriga chatishib va qorishib ketishi orqasidan yuzaga kelgan yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. U jamiyat ruhining reja va maqsadlarini, mustaqillik va taraqqiyotni ifoda etib buyuk o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xullas hozir birgina Amir Temur emas balki boshqa ko'plab bobokalonlarimizni tarixini o'rganish davomida ularning qilgan ishlaridan xulosa chiqarib kelajagimizni qursak nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedov N. Amir Temur rivoyat va haqiqat – Toshkent. 1996. –B 6.
2. Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz – Toshkent. 2010. –B 128.
3. Ahmedov B., Ahmedov A. Temur Tuzuklari – Toshkent. 2020. –B 6.
4. Hayit T. Amir Temur xazinasi – Toshkent, 2018. –B 5.
5. Muhammad Ali Amir Temur chet elliklar nigohida – Toshkent, 2016. – B 12.
6. Saidboboyev Z. Tarixiy Geografiya – Toshkent, 2010. –B 88.
7. Keren L. Amir Temur saltanati – Toshkent, 1999. –B 26.
8. Nizomiddin Shomiy Zafarnoma – Toshkent, 1996. –B 92.
9. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur – Toshkent, 1994. –B 124.
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – Toshkent, 2011. –B 368.
11. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
12. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).



13. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
14. Shoimardonkulovich, Y. D. (2021). The role of entrepreneurship in achieving economic stability. *Academicia Globe*, 2(07), 50-54.
15. Ҳайтов , Ж. Ш. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ НАВЛАРИНИНГ ЕТИШТИРИЛИШИДА ИЛМИЙ МУАССАСА ВА СЕЛЕКЦИОНЕР ОЛИМЛАРНИНГ РОЛИ. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"*, 2(4), 5–11.

